

## O'QUVCHILAR MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TANQIDIY FIKRLASHGA OID TOPSHIRIQLARNING O'RNI

Mavlonova Bibisora Sharafjon qizi  
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani  
34- maktab matematika fani o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7238171>

### Anotatsiya

Ushbu maqolada O'quvchilar matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlashga oid topshiriqlarning o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** matematik savodxonlik, matematik kompetensiya, tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlashga oid topshiriqlar.

Jamiyatimiz hayotining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida erkin, insonparvar, ijodiy faol shaxsni kamol toptirishning eng muhim omillari sifatida ta'lim va ma'naviyatning ahamiyati ortib bormoqda. Shuning bilan birga mamlakatimizda matematika fani 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta'limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Aqlni rivojlantiruvchi, fikrlash qobiliyatini o'stiruvchi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lovchi, keng tafakkur hosil qiluvchi mashqlar qatoriga matematik mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash mashqlarini kiritish mumkin. Tanqidiy fikrlash insonni milliy axborotlarni, g'oyalarni tahlil qilish, izohlash, o'rganilayotgan ma'lumot bo'yicha o'zining shaxsiy taxminlarini qurish, umumlashtirishdir. Tanqidiy fikrlash, o'quv guruhida muammoli darslarni ma'lum qonuniyatlariga amal qilib borgandagina rivojlanadi. Tanqidiy fikrlashning muhim afzalligi, e'tiborsiz bildirilgan fikrlarni, noaniq tushunchalarni va yolg'on dalillarni fosh qilishdir. U g'oyalarni mustahkamlaydi, biroq yaratuvchi fikrlash bilan ta'minlanmaydi. Tanqidiy fikrlaydigan odamlarda quyidagi sifatlar kuzatiladi: rejalashtirishga tayyorgarlik, moslashuvchanlik, maqsadga intiluvchanlik, o'z xatolarini tuzatishga tayyorgarlik, anglash, kelishtiruvchi qarorlarni qidirish.

Tanqidiy fikrlashga o'rgatishda guruhli ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki guruhli tanqidiy fikrlash natijalari samarali bo'lishi amaliyotda o'z tasdig'ini topgan. Fikrlashning yuqori darajada samarali bo'lishi uchun muayyan shart-sharoitlarga e'tiborini qaratish zarur, Shuningdek, o'quvchilarni guruhli fikrlashda qatnashish

imkoniyatlarini maxsus tarbiyalab borish kerak bo'ladi. O'qitish jarayonida guruhli fikrlashning ba'zi maxsus shart-sharoitlarini guruhli fikrlashga oid metodik talablar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- boshqani ham tushunish. Quloq solishga, boshqa odamning fikrini qisqa va lo'nda bayon etish;
- agar boshqa odamning fikrini tushunmagan bo'lsangiz, uni so'rang, savol berishga o'rganing;
- guruhdagi boshqa qatnashuvchining fikriga rozi bo'lmasangiz, uni nimani xato deb hisoblasangiz, aniq tasdiqli fikr ayting;
- agar sizning fikringizga rozi bo'lmasa, qayta tushuntiring, lekin xatoni to'g'ri deb turib olmang;
- masalaning echimidan har bir ishtirokchining manfaatdor ekanligini esdan chiqarmang. To'g'ri echimning topilishiga yordam bering;
- e'tiroz bildirishdan avval, boshqaning vaziyatli masalani hal etishiga baho bering;
- vaziyatli masalaning umumiy echimini tushunishga urining.

Tanqidiy fikrlashga oid topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning matematik savodxonligi hamda matematik kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Hayotda uchraydigan turli xil vaziyatlarni matematik mushohada yuritish orqali hal etish imkoniyatini oshiradi. Tanqidiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilar har qanday vazifani chuqur o'ylab, puxta rejalashtirib bajaradi, muamomoli vaziyatlardan tez chiqib keta oladi.

Quyida tanqidiy fikrlashga oid test topshirig'idan namuna keltirilgan:

1. Qaroqchilarda ikkita sandiqcha bor. Chap sandiqchada 10 ta tanga bor, o'ng sandiqcha esa bo'sh. Ertadan boshlab qaroqchilar chap sandiqchaga 1 tanga solib, o'ng sandiqchaga esa 2 tangadan solishadi. Ikkala sandiqdagi tangalar soni qaysi kunda teng bo'ladi?



- a) 5   b) 8   c) 10   d) 12   e) hech qachon

2. Ushbu rasmda necha marta o'zingizning o'ng qo'lingizni ko'rasiz?



- a) 3   b) 4   c) 5   d) 6   e) 7

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi „Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4708-sonli qarori
2. Tadjieva Z.G' Va boshq. Matematika o'qitish metodikasi. Turon iqbol. 2012.
3. [http: www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
4. Murodinova, N., & Ganiyeva, M. The role of family to develop for perfect person.
5. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.